

ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT-UL ABROR” ASARIDA  
QO‘LLANGAN TASVIRIY IFODA VA BADIY O‘XSHATMALARNING  
LISONIY TAHLILI



*Elmurodova Mavluda No'monovna*

*Qashqadaryo viloyati Kitob tumani 96-sonli umumiy  
o'rta talim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” asarida qo‘llangan tasviriy ifoda va badiiy o‘xshatmalarning til xususiyatlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganildi va dostondagi aniqlanmagan tasviriy ifodalar ustida lisoniy tadqiq qilindi. Bundan tashqari, zamonaviy tilshunoslikda e’tibor qaratilayotgan presuppozitsiya hodisasi bilan bog‘lab o‘rganildi. Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” asarida qo‘llangan tasviriy ifodalar va o‘xshatishlarning o‘z va ko‘chma ma’nolari batafsil tahlil qilindi. Ushbu tasviriy ifodalar va o‘xshatishlar lisoniy nuqtayi nazardan to‘liqroq yoritishga harakat qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, “Hayrat-ul abror”, leksema, lingvistika, pragmatika, proyeksiya muammosi, tasviriy ifodalar, presuppozitsiya, lisoniy tahlil, o‘z ma’no, ko‘chma ma’no, prafrazalar, semantik nazariya.

Buyuk bobokalonimiz, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” asari “Xamsa”dagi besh doston ichidan o‘zining betakror tasvirlari va takrorlanmas hikmatli so‘zlari bilan ajralib turadi. “Hayrat-ul abror” asari necha asrlardan buyon o‘zining shirador ma’nosini yo‘qotmaydi. Bunga sabab unda qo‘llangan so‘zlar barchaga tushunarli bo‘lgan turkiy adabiy tilda yozilganligi bilan bir qatorda so‘zlarning boy tasvirga ega ekanligidir. Fors-tojik tilining ta’siri natijasida o‘zbek tilining fonetik tizimi va grammatik qurilishida ham ayrim o‘zgarishlar yuzaga keldi. Bularning muhimlaridan biri sifatida bevosita fors-tojik tilining ta’siri ostida yetakchi shahar shevalarida turkiy til fonologik tizimiga xos bo‘lmagan tovushlarning paydo bo‘lishini ko‘rsatish mumkin. Bu hodisa o‘zbek tilida singarmonizmning qisqarishiga, shahar shevalarida esa asta-sekin kuchsizlanib yo‘qola borishiga olib keldi. Ko‘p asrlar davomida bir hududda yashash, bir xil turmush tarzi va madaniy hayot bu xalqlarning tillarida yaratilgan hikmatli so‘zlar, maqol va iboralarda ham o‘z aksini topdi.

Masalan: Bir kunga ho‘kiz o‘lmas , ikki kunga egasi bermas - Ba yek ro‘z barzagov namemurad, ba du ro ‘z sohebash namedihad; odamning qo‘li gul- Dasti odam gul; kabi hikmatli so‘z va iboralar mazmuni bilan ham bir- biriga o‘xshaydi. Bu kabi hikmatli so‘z va iboralar bu tillarda bir vaqtda yoki oldinma-ketin yuzaga kelgan. O‘zbek tili ham, o‘z navbatida, fors-tojik tilining rivojlanishiga, uning leksikasiga va ayniqsa, grammatikasiga ma’lum darajada ta’sir qilgan o‘zbek tilidan juda ko‘p so‘zlar, iboralar ,lug‘aviy birliklardan tashqari, bir qator so‘z yasovchi va shakl yasovchi affikslar ( -chi, -cha , dosh, siz, lik kabi) ham forstojik tiliga qabul qilingan. Tarixiy jihatdan o‘zaro doimiy aloqada bo‘lib turishi sababli fors-tojik tilida ,ayniqsa, uning ko‘pgina yetakchi shevalari morfologiyasi va sintaksisida paydo bo‘lib, keng ishlatilayotgan yangi agglyutinativ tipdagi tahliliy shakllar jumladan, omada budam, rafta istodaam, rafta istoda budam tipidagi ravishdoshli murakkab fe‘l shakllari bevosita o‘zbek tilining ta’siri asosida paydo bo‘lgan grammatik hodisalar hisoblanadi. O‘zbek va fors-tojik tillarining o‘zaro bir-biriga ta’siri bizning davrimizgacha davom etdi va yana ham mustahkamlanib bordi. Buning natijasida, ikki tilchilik hodisasi yuzaga keldi.[ Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining turkiy qatlami. -Toshkent, 2000.] Turkiy tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ko‘proq uning lug‘at tarkibi boyishiga arab tili ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Mahalliy xalqlarning tillariga arab tilining ta’siri bevosita VIII asr boshlarida arablarning O‘rta Osiyoni bosib olishi, arab xalifaligi hukmronligining boshlanishi va bu yerdagi xalqlarning musulmonlikni, Tilshunoslik islom dinini qabul qilishi bilan bog‘langan. O‘rta Osiyo xalqlari islom dini bilan birga arab yozuvini ham qabul qildilar. Arab tili esa mamlakatning ijtimoiy-madaniy hayotida asosiy o‘rinni egallay boshladi. Arab tili faqat islom dinini targ‘ib qilish, islom falsafasi va aqidalariga doir g‘oyalar, fikr va tushunchalarni ifodalash va diniy ibodat majburiyatlarini bajarish sohasidagina emas, balki davlat idora ishlarida, mamlakatning ilmiy -madaniy hayotida ham hukmron til sifatida qo‘llanar edi. Arab tilining fan va adabiyotda keng ishlatilishiga uning islom dini bilan birga va uning tili sifatida juda katta hududga tarqalishi va umumiy tilga aylanishi ham sabab bo‘ldi. Bu tarixiy hodisalar mahalliy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti va madaniyatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrlarda diniy aqidalarni targ‘ib qiluvchi shuningdek, turli fanlarga oid ilmiy asarlar, asosan, arab tilida yozilar edi. Jumladan, O‘rta Osiyo xalqlari orasidan yetishib chiqqan yirik olimlar-Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariylar o‘z asarlarini ona tilida emas, balki arab tilida yozishga majbur bo‘ldilar. Yuqorida ko‘rsatilgan tarixiy jarayon natijasida mahalliy xalqlarning tillariga arab tillaridan ko‘plab so‘z va iboralar qabul qilindi. Alisher Navoiyning “Hayrat-ul abror” asarida ko‘plab tasviriy ifodalar va o‘xshatishlar qo‘llangan. Quyida ularning ayrimlarini ko‘rib o‘tamiz.

“Dema quyosh Ravzai rizvon degil, Ravza ichinda guli xandon degil”[Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti.1979.-213 b.]

Ushbu baytda quyidagi ma‘noni ko‘rishimiz mumkin: “Buni (quyoshni) quyosh dema mamnuniyat bog‘i degin, uni bog‘ ichida ochilgan gul deyish mumkin, bundan kelib chiqadiki, Quyosh “mamnuniyat bog‘i” (ravzai rizvon) hamda “bog‘ ichida ochilgan gul” (ravza ichinda guli xandon) kabi o‘xshatishlar bilan ta‘riflangan.

Yana bir o‘rinda nihoyatda chiroyli o‘xshatishga guvoh bo‘lamiz:

“Mehr yuzin oynarang aylading, Yuzda kusufin anga zang aylading. Ko‘kni qilib sahfa minu kibi, Aylading ul sahfa ni ko‘zgu kibi”.

Birinchi baytda Navoiy Ollohga murojaat qilib, “Quyosh yuzini ham oynarang qilding, Quyosh tutilishi esa uning zanglagani belgisidir”-deya quyoshni ta‘rif etadi. Keyingi baytda “Ko‘kni zangori varoqqa o‘xshatib, o‘sha sahifani esa ko‘zguga aylantirding”-degan ma‘no anglashiladi. Ushbu to‘rtlikda Mehr (quyosh)- oynarang, quyosh tutilishi-zanglash; Ko‘k(osmon)- zangori varoq va ko‘zgu kabi o‘xshatmalar bilan berilgan. Quyidagi baytda Navoiyning so‘zdan naqadar go‘zal ifoda yaratishiga guvoh bo‘lamiz:

“Sunung etib konni muallamma’ guhar  
Hukmung etib tog‘ni murassa’ kamar”.

Ma‘nosi: “Senining kuch qudrating tufayli konlardagi gavharlar rang-baranglik kasb etdi.” Sening buyrug‘ing bilan qimmatbaho toshlarni tog‘ beliga kamar qilib bog‘lab olgandir.

Bilamizki, tog‘larda har xil qimmatbaho toshlar mavjud bo‘lib, ular tog‘-u toshlarda yashiringan bo‘ladi. Ulug‘ shoirimiz buni ajoyib o‘xshatish bilan “tog‘ning beliga bog‘langan kamar” ga o‘xshatyapti. Oddiygina hayot hodisalarini shunchaki qog‘ozga tushirmasdan har bir so‘zga jon baxsh etib, go‘zal o‘xshatishlar bilan yozilgan bunday misralar “Hayrat ul-abror” dostonida juda ko‘p. Quyidagi baytda ham ajoyib tashbehga guvoh bo‘lamiz:

“Gunbadi mino bila toqi sepehr,  
Kim anga sham’ anjum erur, shamsa-mehr”

Ma‘nosi: Havorang gumbaz bilan osmon toqidagi yulduzlar sham, Quyosh esa naqshinkor qubba. Yana bir baytda ko‘makchilar orqali ajoyib o‘xshatish yuzaga kelgan:

“Sarsari qahring chu bo‘lib ko‘hkan,  
Tog‘ bulut yanglig‘ bo‘lib na‘razan”

Ushbu baytning ma‘nosi “chu” (go‘yoki), “yanglig‘” (kabi) ko‘makchilari orqali betakror o‘xshatish yuzaga kelgan. Ikkinchi na‘tda payg‘ambarimiz ta‘riflarida so‘z borar ekan, ularning tug‘ilishi, “yangi chiqqan oydek” deb ta‘riflanadi:

“Ey ko‘runub g‘urra kibi tiflzod’

Tifli rahing charxi qadimiy nihod”

(Ey tug‘ilishidanoq yangi chiqqan oydek ko‘ringan zot!

Yo‘lingning bolalik chog‘i qadimiy osmon odaticha edi. )

“Qo‘ydi chu ul dom il aul dona g‘or,

Ko‘rki ne davlat qushin etti shikor.

G‘orda yori bila ul tezhush,

Tog‘ ichida o‘ylaki oltun-kumush”

To‘rtinchi na‘tdagi bu baytning ma‘nosi quyidagicha: U (Payg‘ambarimiz) shu taqlidda tuzoq qo‘yib , g‘or oldiga esa don sohib, qarang qanday baxt qushlarini ovlay oldi. G‘orda xushyor do‘sti Abu Bakr Siddiq bilan berkinib turar ekan, go‘yo ular tog‘ qatida yotgan oltin bilan kumush edilar. Yuqoridagi baytda Muhammad (s.a.v) va Abu Bakrning g‘orda yashirinishi “tog‘ qatida yotgan oltin bilan kumush” deb o‘xshatiladi. Ushbu na‘tdagi yana bir baytda o‘xshatish san‘atidan mahorat bilan foydalanilgan:

“Sura dema , “qof” ila “nun” yoki “sod”,

Ya‘nikim har harfig‘a oning savod.

Sunbulidek borcha parishon edi,

Jomi’ anga jomi Qur‘on edi.”

Ma‘nosi: “Suralari hali (to‘la ma‘noda ) sura emas, “Qof”, “Nun”, “Sod” harflariga oid qismlar bo‘lib , bular turli harflarga oid qoramalar edi. Ular Tilshunoslik payg‘ambarning sochlaridek tarqoq edi. Hazrati Umar “Qur‘on bo‘laklarini yig‘ib jamlagan to‘plovchi” bo‘ldi. Bu tabdildan kelib chiqadiki, Qur‘on suralari – Payg‘ambarimiz sochlaridek tarqoq holatda, hali to‘liq yig‘ilmagan. XII bobda Xusrav Dehlaviy ta‘rifi keltirilgan bo‘lib, ushbu bobda Dehlaviy Farhodga qiyoslanadi :

“Xusrav o‘lub mulk etib obod ham,

Yolg‘uzi Xusrav dema ,

Farhod ham Ranj tog‘in qazmoq aning peshasi,

Tog‘i aning nazmu tili-teshasi. ”

Nasriy bayonda quyidagicha tabdilda berilgan: “Uni Xusravgina emas, Farhod deb atasa ham bo‘ladi. Uning hunari mehnat-mashaqqat tog‘ini qazish, bunda tog‘ uning she‘riyati, tesha esa uning tilidir”.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarida qo‘llanilgan ushbu o‘xshatishlar zamonaviy tilshunoslikdagi presuppozitsiya hodisasiga tayanib tahlil qilinganda, matndagi yashirin va ichki ma‘noda qo‘llangan so‘zlar o‘z-o‘zidan kelib chiqadi. Lingvistik presuppozitsiyaning shakllanishida ularga ishora qiluvchi grammatik vositalarning ma‘noviy belgixususiyati muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga , zamonaviy tilshunoslikdagi presuppozitsiya gap semantikasining yashirin uzvi sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanadi. Ma‘lumki, Navoiy asarlarida so‘z tejash va so‘zning

ko‘chma ma’nolaridan keng qo‘llanilgan. Bu esa Navoiy asarlarining boy mazmunini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, “Hayrat ul-abror” asarini o‘rganib chiqish davomida yana ko‘plab o‘xshatmalarga guvoh bo‘lamiz. Quyida ularning yashirin ma’nolarini ko‘rib o‘tamiz.

- 1)Quyosh – mamnuniyat bog‘i,
- 2) Quyosh tutilishi –oynaning zanglashi,
- 3)Ko‘k – zangori varaq ,
- 4) Qimmatbaho toshlar – tog‘ beliga bog‘langan kamar,
- 5)Osmon toqidagi yulduzlar – sham,
- 6) Quyosh – naqshinkor qubba,
- 7)Allohning qahri – pahlvon toshyo‘nar,
- 8) Alloh – odil hukmdor,
- 9) Payg‘ambar – yangi chiqqan oydek,
- 10) Abu Bakr va Pavg‘ambarning g‘orda yashirinishi – tog‘ qatida yotgan oltin bilan kumush,
- 11) Qur‘on suralari – payg‘ambar sochlaridek tarqoq...

Bundan ko‘rinib turibdiki, so‘zlarning ichki va yashirin ma’nosi bir qancha vositalar (signallar) orqali o‘quvchiga anglashiladi. Tilshunoslikdagi ushbu signallarni tilshunoslar quyidagicha tartiblashgan: leksik vositalar, morfologik vositalar va sintaktik vositalar. Tilshunos olim U. Rahimov presuppozitsiyani ochib beruvchi leksik vositalarga shakldosh, ma’nodosh hamda zid ma’noli so‘zlarni kiritadi. Morfologik vositalarga esa o‘xshatish-qiyoslash ko‘makchilari , yuklamalar, -dek, -day qo‘shimchalari hamda ayrim bog‘lovchilarni kiritish mumkin. Sintaktik vositalarga esa so‘roq gaplar, o‘xshatishli qurilmalar hamda prafrazalar misol bo‘la oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. E.I.Fozilov tahriri ostida. I tom. – Toshkent. 1983-656-b; II tom. –Toshkent, 1983-642-b; III tom. –Toshkent, 1984-622; IV tom. 1985. 634-bet.
2. Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish. Filol. Fan. nom. ...Diss. avtoref. –Toshkent, 2005.50-b.
3. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.1979. 213-b.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (arab so‘zlari va ular bilan hosilalar). –Toshkent: Universitet, 2003. 599-b. 5.Abdulxayirov M. Navoiy asarlarida so‘z va iboralar.–Toshkent: Tafakkur bo‘stoni,2009. 240-b